

**Madaniy meros agentligida Korrupsiyaga qarshi kurashish,  
“9 dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” mavzusiga  
bag‘ishlangan amaliy seminar**

**2024-yil 10-dekabr**

**Toshkent shahri**

Joriy yil 10-dekabr kuni Madaniy meros agentligida Korrupsiyaga qarshi kurashish, “9 dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” mavzusiga bag‘ishlangan amaliy seminar o‘tkazdi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi va Inson resurslarini rivojlantirish bo‘limi tomonidan tashkil etilgan yig‘ilishda Agentlikning markaziy apparat xodimlari bilan birga Zoom videokonferensiya dasturi orqali hududiy boshqarma xodimlari ham ishtirok etdilar.

Seminar Korrupsiyaga qarshi kurashish, “9 dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” mavzusiga bag‘ishlandi.

Tadbirda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi boshlig‘i Rashidova Barno “Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida davlat siyosati va uning ustuvor yo‘nalishlari mavzusida ma’ruza qildi va “9 dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” Ma’lumotlarga ko‘ra, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2003-yil 21-noyabrdagi rezolyusiyasiga muvofiq, 2004-yildan boshlab mazkur sana nishonlanib kelinmoqda Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni joriy qilinishidan asosiy maqsad, Bosh Assambleya rezolyusiyasida ko‘rsatilishicha, korrupsiya



muammosining oldini olish va unga qarshi kurashishda Konvensiyaning rolini kengroq anglashdan iborat. Shundan kelib chiqib, ko‘pgina mamlakatlarda shu kuni uchrashuvlar, konferensiyalar, seminarlar va boshqa tadbirlar o‘tkaziladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish O‘zbekiston Respublikasida davlat faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylanganligi va Davlatimiz rahbari 2016-yil oktabrda, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod sifatidagi ilk saylovoldi ma’ruzasidayoq mahalliychilik va urug‘-aymoqchilik kabi illatlar barobarida O‘zbekistonning barqaror rivojiga xavf tug‘dirayotgan tahdidlar orasida aynan davlat hokimiyatini obro‘sizlantirib, iqtisodiyotning o‘shishi va tadbirkorlik rivojiga jiddiy to‘siq bo‘lib kelayotgan korrupsiya masalasiga barchaning e’tiborini qaratdi.



Aynan shu davrdan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligi ostida korrupsiyaga qarshi murosasiz kurash boshlandi va bu borada izchil qadamlar qo‘yildi.

Xalqimizning tom ma’nodagi adolat qaror topgan jamiyatda yashashi uchun nafaqat mas’ul shaxslar, balki har bir fuqaro o‘z hissasini qo‘shishi zarur.

Bu fuqarolarimizda korrupsiyaga, aniqroq aytganda, har qanday qonunbuzarlikka nisbatan murosasizlik kayfiyati, madaniyati shakllanishiga ham bog‘liq. Chunki har qanday qonunbuzarliklar sodir etilishiga, ko‘payishiga ko‘p hollarda o‘zimizning befarqligimiz, loqaydligimiz sabab bo‘lib kelmoqda. Barchaning yakdilligi, yurt taqdiriga daxldorligi kuchayishi har qanday illatning batamom barham topishiga xizmat qiladi.

Jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni qaror toptirish o‘ta dolzarb masala bo‘lib, garchi uni bajarish doirasida mas’ul idoralar belgilangan bo‘lsa-da, uning to‘laqonli ro‘yobga chiqishi uchun har bir inson o‘zida mas’uliyatni his etishi zarur.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasini takomillashtirish, huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf etish maqsadida sohaga taalluqli **13 ta**, shuningdek, boshqa sohalardagi islohotlar natijasida korrupsiya omillarini qisqartirishga qaratilgan **24 ta** normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

**Korrupsiya nima o‘zi?** - Qonun hujjatlarida korrupsiya tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan: «Korrupsiya – davlat organlari xodimlari moddiy yoki mulkiy yo‘sinda, g‘ayriqonuniy shaxsiy naf ko‘rish maqsadida, o‘z xizmat mavqeidan foydalanishida ifodalanadigan ijtimoiy hodisadir».

**Aslida korrupsiya biror mansabdor shaxsning qonunchilik va axloqqa zid ravishda o‘zining boshqaruv vakolatlari va huquqlaridan shaxsiy manfaatlar maqsadida foyda olishidir.**



Korrupsiyaning kelib chiqish ildizi qayerda? Uning kelib chiqish sabablarini aniqlash, korrupsiyaga qarshi kurashning samarali yo‘llarini topish bo‘yicha mutaxassislar, turli institutlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan yuzlab, minglab tadqiqotlar o‘tkazilgan. O‘ziga xos reytinglar tuzilib, har xil ko‘rsatkich va raqamlar qayd etilgan jadvallar yaratilgan. Hatto korrupsiyaning xilma-xil ko‘rinishidagi formulalari ham ishlab chiqilgan. Hanzugacha, barcha millatlar uchun qo‘l keladigan qarshi kurashda asqotadigan yagona yechim yo‘q; Korrupsiyaning har qanday ko‘rinishlariga qarshi kurashishni biz, eng avvalo, o‘zimizdan boshlashimiz darkor.

Xalqimizning tom ma’nodagi adolat qaror topgan jamiyatda yashashi uchun nafaqat mas’ul shaxslar, balki har bir fuqaro o‘z hissasini qo‘shishi zarur.

Bu fuqarolarimizda korrupsiyaga, aniqroq aytganda, har qanday qonunbuzarlikka nisbatan murosasizlik kayfiyati, madaniyati shakllanishiga ham bog‘liq. Chunki har qanday qonunbuzarliklar sodir etilishiga, ko‘payishiga ko‘p hollarda o‘zimizning befarqligimiz, loqaydligimiz sabab bo‘lib kelmoqda. Barchaning yakkidilligi, yurt taqdiriga daxldorligi kuchayishi har qanday illatning batamom barham topishiga xizmat qiladi.



Seminar yakunida Agentlik xodimlari o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldilar.